



**“OLYI TA’LIM MAZMUNIGA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman
MATERIALLARI**



OLIY TA'LIM TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Ismatova Halovat Baxtiyorovna

Buxoro dvlrat universiteti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Eng avvalo tarbiya inson kamoloting gultojidir. Shaxs kamol topishida tarbiyaning o'ziga xos turlari asosida shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa ziyoli insonlar bo'lmish ustozlar yosh avlod tarbiyasiga ma'suldirlar. Oliy ta'lim tizimida bulg'usi pedagog kadrlar tarbiyaviy ishlarni tasirchanligini amalga oshirishda, milliy oruhda tarbiyalashda alohida e'tibor qaratish lozim.

Milliy tarbiya milliy qadriyatlar asosida shakllanadi. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bulgan juda ko'p qadriyat shakllarini qamrab oladi. Oliy bosqichlardan ketma-ket foydalanish mumkin. Ular asosan quyidagilar;

- milliy qadriyat haqida tushuncha berish;
- ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-moddiy boyliklar haqida yosh avlodga tushuncha berish;
- xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish;
- urf- odat va ularning tarbiyaviy ahamiyati;
- xalq yaratgan an'ana va marosimlarni o'rganish va nishonlash kabilar.

Albatta tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini ochib berish uquvchilarga milliy goya, milliy gurur, milliy iftixor kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantiradi. Globallashuv davrida yashar ekanmiz, ommaviy madaniyatning yashin tezligida kirib kelishi uning yoshlar ongiga salbiy ta'siri hechkinga sir emas. Shunday ekan milliy tarbiyaning o'ziga xos usullari, kelajak avlodni ezgu maqsadlari yo'lidagi harqanday tusiqlarni parchalaydi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deganlar "Uzluksiz ma'naviy tarbiya -milliy yuksalish kafolati" shu ma'noda bunga buyuk va dono xalqimizning xalq ogzaki ijodining noyob durdonasi bulmish "Alpomish" dostoni, millatimizni uzligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qushig'idir. Ona xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tugamas bir doston bulsa "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti desak mubolaga bulmaydi. Bu mumtoz asarda tarixning har qanday mashaqqatli sinovlarida uzligini doimo saqlagan el-yurtimizning bagrikenglik, matonat, oliyjanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlar uz aksini topgan. Shu bois bu xalq og'zaki ijodining buyuk mahsuli bo'lmish "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Eng avvalo odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qurgonini quriqlashga, do'stu yorimizni har qanday tajavvuzlardan himoya qilishga o'rgatadi. O'zbek xalqining milliy ma'naviyati azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotganligi xalqimiz uchun eng ulug' bayram-sharqona yangi yil bulmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va kasallar holidan xabar olinishi, urushganlar

yarashishi, sovchilikka boorish kabi urf odatlar buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topgan xalqimizning kuzgusidir.

Zero oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirishda mana shunday boy milliy merosimizni tanitish, milliy urf odatlarimizni tarannum etuvchi "Alpomish avlodlari", "Buyuklar izdosglari", "O'tmishga sayohat" kabi bir necha mavzularda tadbirlar o'tkazish, sayyor darslar tashkil etish, yoshlarni vatanparvarlik O'zbekiston shubhasiz buyuk mutafakkir va allomalar yurtidir. Eng avvalo haqli ravishda musulmon olamida "Muhaddislar sultoni" deya o'lgan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat bilan tilga olamiz. Bu mu'tabar zot me'rosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami "Al-jome as -sahih" kitobi, yana bir ulug' alloma Abu Iso Muhammad Ibn Iso Termiziyning ma'naviy merosi "Sunani Termiziy", islom huquqshunosligining o'lgan namoyondalaridan Burhoniddin Marginoniyning "Hidoya" "To'g'ri yo'l" deb atalgan asari, aziz avliyolarimizdan Abduxoliq Gijduvoni va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi.

Ruhida tarbiyalash, ularga faxr va iftixor hissini uyg'otish, davlat kelajagini o'z kelajagi deb bilish yo'lida o'lgan poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Milliy tarbiya yashagan yurtda millat yashaydi. Insoniyatni ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o'zining milliy davlatini qurishda azmu qaror qilgan har qaysi xalq, yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumda utishda o'ziga qushimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi. Avvalo, milliy tarbiyaning bosh mezonini o'zlikni anglashdir.

Ma'lumki o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurni ifodasi, avlodlar urtasidagi ruhiy-ma'naviy bogliqlik til orqali namoyon bo'ladi. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adbiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" [1].

Darhaqiqat, milliy tilimiz, davlat ramzlarimiz, konstitutsiyamiz baxtimiz qomusi, bizning gururimiz va faxrimizdir. Bugungi davr yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularga milliy tarbiyani shakllantirishda milliy tilimizni urni beqiyosdir.

Oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni shakllantirish uchun eng avvalo yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularda insoniylik jihatlarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy yetuk kadrlarni yetishtirish uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз /Ш. М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. - 592 б.

2. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq (Matn) / A. Avloniy/ - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 96 б.

3. Bakhtiyorovna I. K. Methodological Conditions for the Organization and Management of Working with Difficult and Idle Students //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 115-119.

4. Ismatova H. B. TARBIYASI QIYIN VA BOSH OZLASHTIRUVCHI OQUVCHILAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING METODIK IMKONIYATLARI //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1017-1023.

QADRIYAT G'OYASI VA UNING UMUMIY AKSILOGIYADAGI RIVOJI

M.SH.Xojiyeva

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Falsafaning eng muhim muammolaridan biri – qadriyatlar muammosidir. Qadriyatlar muammosi falsafa tarixida qadimdan mavjud bo'lgan. Qadimiy Yunon faylasuflari Suqrot, Platon ezgulik, yaxshilik, adolat, farovonlik, qadriyatlari haqida fikr yuritganlar. Aristotel adolat, baxt yuksak qadriyatlar ekanligini ta'kidlagani holda, ularni nisbiy xarakterdaligi, ular insonning oqilligiga bog'liqligi haqida fikr yuritgan. O'rta asrlarda qadriyatlar ilohiy mazmunda tahlil qilingan. Uyg'onish davri falsafiy qarashlarida insonparvarlik, xurfikrlilik qadriyatlariga alohida diqqat qaratilgan. XIX asrdan boshlab qadriyatlar nazariyasi ishlab chiqildi. Qadriyatlar to'g'risidagi nazariya, ta'limotni ifodalaydigan aksiologiya termini XIX asrning ikkinchi yarmida fransuz faylasufi P.Lapi va nemis olimi E.Gartmanlar tomonidan iste'molga kiritildi.

Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi fani sifatida XX asrning oxirida shakllandi. Qadriyatlar to'g'risidagi ta'limot qadriyatshunoslik, qadriyatlar falsafasi – aksiologiya, deb yuritiladi. Qadriyatlar nima? Bu tushuncha qadriyat qimmat tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Qadriyatlar kishilar qadriyatdigan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Falsafa qomusiy lug'atida qadriyatlar jamiyat, inson, insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa va hodisalar, xislat va fazilatlar jamul-jami deb ta'rif berilgan. Akademik J.Tulenovning fikricha, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalar majmui tushunilmog'i lozim. Qadriyatlar tushunchasida unga xos xususiyatlar aks etgan: 1. Qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy. Narsalarning o'zi mustaqil ravishda qadriyat bo'la olmaydi. Jamiyat bo'lmasa, qadriyat ham yo'q. Qadriyatlar doimo inson qadriyatlaridir. SHuning uchun ham inson bilan aloqadorlikda bo'lgandagina narsalar qadriyat bo'la oladi. 2. Qadriyatlar insonning amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Inson va uning ma'lum natijaga erishishga yo'naltirilgan faoliyati uning uchun ahamiyatli, qadriyat. 3. Har qanday narsa 2 xil xususiyatga ega. Biri – narsaning nimaga kerakligi, ikkinchisi uning inson extiyojlariga qay darajada aloqadorligi. Narsa o'zidan-o'zi qadriyat bo'la olmaydi. U insonning biron-bir extiyojini qondirsagina, qadriyat bo'la oladi. Demak, uning qadriyat-qadriyat emasligi insonga, uning munosabatiga bog'liq.